

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2025.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUSHAKOV SAFARALI YUSUPOVICH**

**ZARDUSHTIYLIK DININING PAYDO BO‘LISHIDA TABIIY VA  
IJTIMOIY OMILLAR (O‘ZBEKISTONNING JANUBI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Kushakov Safarali Yusupovich**

Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishida tabiiy va ijtimoiy omillar (O‘zbekistonning janubi misolida)..... 3

**Кушаков Сафарали Юсупович**

Природные и социальные факторы возникновения зороастризма (на примере южного Узбекистана).....23

**Kushakov Safarali Yusupovich**

Natural and social factors in the emergence of Zoroastrianism (in the example of the Southern Uzbekistan).....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/27.09.2025.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KUSHAKOV SAFARALI YUSUPOVICH**

**ZARDUSHTIYLIK DININING PAYDO BO‘LISHIDA TABIIY VA  
IJTIMOIY OMILLAR (O‘ZBEKISTONNING JANUBI MISOLIDA)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Tar703 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Shaydullayev Shapulat Bazarovich  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ochildiyev Fayzullo Boboqulovich  
tarix fanlari doktori, professor

Isxakov Mirsodik Mirsultanovich  
tarix fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2025.Tar.72.07 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil "13" 10 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (365) 221-27-07. E-mail.: buxdu\_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A/731) raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" 09 kuni tarqatildi (2025-yil "30" 09 dagi A/2053 raqamli reestr bayonnomasi)



**A.T.Ochilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**B.B.Boltayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**K.R.Rahimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayonining tobora avj olishi insoniyat tafakkurining taraqqiyoti va uning sivilizatsiyalararo o‘zaro bog‘liq jihatlarini o‘rganishni taqozo etmoqda. Chunki har bir sivilizatsiyaning muhim mezoni bo‘lgan diniy fenomenning shakllanish jarayoni unga ta‘sir o‘tkazgan tabiiy va ijtimoiy omillarni o‘rganish orqali insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni tahlil etish zarurati yuzaga keldi.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida, xususan, Buyuk Britaniyaning Sharqshunoslik va Afrikashunoslik maktabi (School of Oriental and African Studies - SOAS (Buyuk Britaniya), Shimoliy Amerika Zardushtiylik uyushmalari federatsiyasi, Framji Dadaxtboy Alpaivalla muzeyi (Hindiston), Eron falsafa tadqiqot instituti (IRIP), Shimoli-g‘arbiy universitet (Xitoy) va boshqa bir qator muassasalarda Markaziy Osiyoning qadimgi davr tarixiga, zardushtiylik dinning vujudga kelishi va tarqalish omillariga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Natijada, mintaqadagi ilk yakka xudolik dini bo‘lgan zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi, uning shakllanishida muhim rol o‘ynagan tabiiy, ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy omillarni o‘rganish orqali jamiyat hayotida yuz bergan o‘zgarishlarga doir bir qancha ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi. Shunday bo‘lsada zardushtiylikning dastlabki bosqichlaridan tortib monoteistik din darajasiga ko‘tarilgunga qadar mintaqada yuz bergan tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat hayotining tobora demokratlashuv jarayonida dinlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o‘zaro tutashgan vatanimiz hududining boy tarixni tadqiq etish, shu orqali boy tarixiy merosimizni xolisona o‘rganish va dunyo miqyosida targ‘ib etish imkoniyati yuzaga kelmoqda. “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Shuning uchun ham yer yuzidagi ilk yakka xudolik dinlaridan biri bo‘lgan zardushtiylik dinining evolyutsiyasi uning tadrijiy taraqqiyot bosqichida muhim rol o‘ynagan tabiiy va ijtimoiy omillarini hamda unga asos bo‘lgan tabiat kultraning mohiyatini ochib berish muammosi o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 13-oktabrdagi “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F–5181-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2018-yil 19-dekabrda PQ–4068–sonli “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б. 37.

PF-6097-sonli “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishlarning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, siyosiy-iqtisodiy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishiga mos bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XX asrning 60-yillarida Qadimgi Baqtriyada bronza davri o‘troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklarining ochilishi va ularning o‘rganilishi boshlandi. Shu bilan birgalikda O‘rta Osiyo qadimgi aholisining e‘tiqod masalasida ham jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. O‘zbekiston tarixida ilk shahar davlatlarning vujudga kelishi zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi ilmiy farazlarni ko‘tarib chiqish uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi<sup>2</sup>. Zardushtiylikning paydo bo‘lishi va rivojlanish omillarning mazmun va mohiyatini ochib berish uchun adabiyotlar uch qismga bo‘lib tahlil qilindi.

- 1) *Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar.*
- 2) *Mustaqillik yillarida mahalliy olimlarning tadqiqotlari.*
- 3) *Xorijiy adabiyotlar.*

**Birinchi guruh** adabiyotlariga Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar kiritildi. Sovet ittifoqi davrida zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga doir tarixchi hamda arxeologlar tomonidan bir qancha fundamental tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotchilar orasida V.I.Sarianidi<sup>3</sup>, V.M.Masson<sup>4</sup>, Y.A.Zadneprovskiy<sup>5</sup>, S.P.Tolstov<sup>6</sup>, A.A.Asqarov<sup>7</sup>, N.A.Avanesova<sup>8</sup>,

---

<sup>2</sup> Шайдуллаев Ш.Б. Илк давлатларнинг археологик белгилари // “O‘zbekiston tarixi”. – Тошкент. – 2002. № 3. – Б. 3-10.

<sup>3</sup> Сарияниди В.И., Задолгодо Заратуштры (Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане), Москва, 2010; Сарияниди В.И., Древние земледельцы Афганистана. – Москва, 1977. – С. 83-90.

<sup>4</sup> Массон В.М., Древнеземледельческая культура Маргианы. – Москва. – Ленинград 1959 (Материалы и исследования по археологии СССР. №73); Туркменистан в эпоху раннежелезного века. Ответственные редакторы В. М. Массон, Е. Атагарыев. – Ашхабад, 1984. – С. 123-128.

<sup>5</sup> Заднепровский Ю.А., Ошское поселение к истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек, 1997; Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х., Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950-1982) // ИМКУ, №19. 1984. – С. 128.

<sup>6</sup> Толстов С.П., Древний Хорезм. – Москва, 1948; Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва. 1948; Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры // -СА. -1960. -№1. – С. 158-169.

<sup>7</sup> Аскарлов А.А., К вопросу о происхождении культуры племен с расписной керамикой эпохи поздней бронзы и раннего железа. – Этнография и археология Средней Азии. – Москва, 1979; Аскарлов А.А., Альбаум Л.И., Поселение Кучуктепа. – Ташкент, 1979; Аскарлов А.А., Аминов В.С., Рахманов У.В., Новые данные о поселении Кучуктепа // ОНУ-1978. Вып. 11; Аскарлов А.А., Аминов В.С., Исследования Шерабадского отряда // АО-1978. – Москва, 1979.

<sup>8</sup> Аванесова Н. А. Бустон VI некрополь огнепоклонников доурбанистической Бактрии. Самарканд. изд. МИЦАИ, 2013. – С. 525-527.

R.X.Sulaymanov<sup>9</sup>, B.A.Litvinskiy<sup>10</sup>, M.B.Meytarchiyan<sup>11</sup>larning ishlarini alohida ta’kidlab aytish mumkin. Bu davrda Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishiga doir bir qancha artefaktlar qo‘lga kiritildi va uning paydo bo‘lishiga doir bir qancha ilmiy farazlar ilgari surildi.

**Ikkinchi guruh** adabiyotlariga O‘zbekiston mustaqilligi yillarida mahalliy olimlarning tadqiqotlari natijasida yaratilgan adabiyotlar kiritildi. Mahalliy tadqiqotchilari M.Is’hoqov<sup>12</sup>, A.Sagdullayev<sup>13</sup>, H.Homidov<sup>14</sup>, A.Ashirov<sup>15</sup>, Sh.B.Shaydullayev<sup>16</sup>, A.Sh.Shaydullayev<sup>17</sup>, M.X.Esanov<sup>18</sup>, G.Mahmudova<sup>19</sup>, B.Jalolov<sup>20</sup>, D.O.Karimova<sup>21</sup>, N.M.Ikromov<sup>22</sup>, R.T.Urazova<sup>23</sup>, O.A.Hamidov<sup>24</sup>, Sh.B.Abdulloyev<sup>25</sup>, Q.B.Toshaliyev<sup>26</sup>larning tadqiqotlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda Markaziy xalqlarining e’tiqodida zardushtiylikka oid an’anaviy qarashlar, moddiy manbalar tahlili, zardushtiylik panteoniga yuklatilgan vazifalar, dafn marosimlari, daxmalar va dev obrazlar bilan bog‘lik marosimlar talqin qilingan. Mazkur tadqiqot ishida zardushtiylikka asos bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy omillar masalasi tahlil qilindi.

<sup>9</sup> Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в до н.э. – VII н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000. – С. 305.

<sup>10</sup> Литвинский Б.А. Намазга-тепе по данным раскопок 1949-1950 гг. – СЭ, 1952, №4. – С. 42; Кожин П.М., Сарианиди В.И. Змея в культовой символике анауских племён. — В кн.: История, археология и этнография Средней Азии. М.: Наука, 1968. – С. 35-40; Беленицкий А.М., Мешкерис В.А. Змеи-драконы в древнем искусстве Средней Азии // Советская археология. 1986. № 3. – С. 16-27.

<sup>11</sup> Мейтарчиан М.Б., Погребальные обряды зороастрийцев. – Москва, 2001. – С. 189-190

<sup>12</sup> Исхоков М.М, Сулаймонов Р. Заратуштранинг ватани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. № 1. – Б. 45-54.

<sup>13</sup> Сагдуллаев А. “Авесто” нинг илк маросимларини ўрганишда археологик маълумотлар // “O‘zbekiston tarixi” журнали. – Тошкент, 2001. № 3. – Б. 3-9

<sup>14</sup> Хомидов Х. “Авесто”дан Шоҳномага. – Тошкент, Шарқ, 2007. – Б. 145-148.

<sup>15</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий этикод ва маросимлари. – Тошкент.; Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 79-81.

<sup>16</sup> Шайдуллаев Ш.Б. «Авеста» ва моддий маданият // “O‘zbekiston tarixi” журнали, 3. 2004. – Б. 5-11

<sup>17</sup> Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданияти сфрагистикаси ва глиптикаси. Археология бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси матни. –Самарқанд, 2018. – Б. 24; Ҳамидов О.А. Шимолий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Археология бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси матни. – Самарқанд, 2019. – Б. 96.

<sup>18</sup> Эсанов М.Х. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: 2007. – Б. 133-134.

<sup>19</sup> Маҳмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: “Noshir”. 2015. – Б. 132-148.

<sup>20</sup> Жалолов Б. Заратуштра гаталари. Авесто тилидан ўзбек тилига илмий-изоҳли таржима. – Тошкент, 2014. – Б. 120-127.

<sup>21</sup> Каримова Д.О. Шимолий Бактрия бронза даври қабилаларининг дафн маросимлари ва диний этиқодлари (бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: 2017. – Б. 142-148.

<sup>22</sup> Икромов Н. Қадимги Бактрия Кавийлиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Термиз 2020. – Б. 88-91.

<sup>23</sup> Уразова Р.Т. Зардуштийликда маъбудаларнинг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти // тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 131.

<sup>24</sup> Ҳамидов О.А. Шимолий Бактриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари. Археология бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси матни. – Самарқанд, 2019. – Б. 123.

<sup>25</sup> Abdulloyev Sh.B. O‘rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida dev obrazi: shakllanishi va evolyutsiyasi // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – Б. 134.

<sup>26</sup> Toshaliyev Q.B. O‘rta osiyo daxmalari (Shimoliy Baqtriya misolida) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2024. – Б. 141.

Qolaversa xorijda ham Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi, tarqalishi va uning mohiyati turli xil tadqiqotlar kontekstida tadqiq qilingan. Shu sababli xorijiy tadqiqot natijalarida vujudga kelgan adabiyotlarni **uchunchi guruhga** kiritildi. Xorijda Zardushtiylik masalasida tadqiqot olib borgan olimlardan J.Darmsteter<sup>27</sup>, M.N.Dhalla<sup>28</sup>, M.Boys<sup>29</sup>, G.Noli<sup>30</sup>, Y.Rapoport<sup>31</sup>larning tadqiqotlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bularning tadqiqotlarida Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va keng yoyilishi borasidagi qarashlar, Ahriman va Ahuramazda o'rtasida kechgan kurash, Avestoda keltirilgan ijtimoiy masalalar, insonlarning turmush-tarzi va mehnat faoliyati kabi masalalarga keng to'xtalib o'tilgan.

Shunday bo'lsada hali hanuz Zardushtiylik dini vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillar alohida monografik tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti O'zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITIR-001 "O'rta Osiyoda ilk davlatchilik, diniy qarashlar va din. Mustaqil O'zbekistonda madaniy jarayonlar" (2018-2024-yillar) mavzusidagi yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'rta Osiyoda zardushtiylik dinning paydo bo'lishi va mintaqa bo'ylab tarqalishida muhim rol o'ynagan tabiiy va ijtimoiy omillarni o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

Zardushtiylikning tarixiy ildizlari, protozardushtiylik haqidagi fikrlar va ularning amaliy va nazariy asoslarini arxeologik topilmalar va ilmiy manbalar asosida ochib berish;

Eneolit va bronza asrlarida Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridagi tub o'zgarishlar, ibtidoiy davrda urug' jamoatchilikdan qabila ittifoqlari hududiy birliklar vujudga kelishining ijtimoiy va tabiiy omillarini aniqlash;

Zardushtiylik bronza va ilk temir davri Markaziy Osiyo xalqlari hayotida regulativ hamda integrativ zarurat ekanligini, jamiyatining asosiy xo'jalik ukladlari dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilikning vujudga kelishi va taraqqiyoti jarayonlarini Avestada keltirilgan ma'lumotlar asosida ilmiy asoslash;

Sopolli madaniyatida protozardushtiylik davriga xos topilmalarni tarixiy talqin etish, zardushtiylik ibodatxonasining din tarixi tadrijidagi hamda bronza davri ma'naviy munosabatlaridagi o'rnini ochiqlash;

Ko'hitang tizmasida "zardushtiylik daxmasi" deb ta'riflangan yodgorliklarning tarixiy talqini masalasiga doir ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish.

---

<sup>27</sup> Darmesteter J. Ormazd et Ahriman, leurs origines et leur histoire. Paris. – 1877. – P. 73-75

<sup>28</sup> Dhalla M.N. Zoroastrian theology from the earliest times to the present day. – New York. – 1914. – P. 143-147.

<sup>29</sup> Boyce M. A history of Zoroastrianism. Vol. I. Leiden / Köln. E.J.Brill. 1975 – P. 122-124.

<sup>30</sup> Gnoli, G. Zoroaster's Time and Homeland, Napoli: Istituto Universitario Orientale, Seminario di Studi Asiatici. 1980 – P. 273-277.

<sup>31</sup> Рапопорт Ю.А., Некоторые вопросы сложения зороастрийской погребальной обрядности (по археологическим данным) // XXV Международный конгресс востоковедов. Доклады делегации СССР. – Москва, 1960; Рапопорт Ю.А. Из истории религии Древнего Хорезма (оссуарии). – Москва, 1971. – С. 13-20.

**Tadqiqot obyekti.** O'rta Osiyo mintaqasida zardushtiylik dini shakllanishiga asos bo'lgan tabiiy va ijtimoiy omillar tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti.** O'rta Osiyoda zardushtiylik dinida muhim o'rin tutgan tabiiy va ijtimoiy omillar hamda ularning evolyutsion rivojlanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyani yozishda davriy va hududiy-geografik, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish hamda fanlararo yondashuv usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi masalasida ilmiy qarashlar XVIII asrdan boshlab qizg'in munozaraga kirganligi shu asosda yevropalik olimlar tomonidan zardushtiylik dini, ibodat va amallari yetarlicha asoslansa-da, uning vatani borasida yagona to'xtamga kelinmaganligi, biroq mahalliy tarixchilar tomonidan Sopolli, Jarqo'ton, Dashtli, Tagolok va Gonur yodgorliklarida topilgan materiallarga asoslanib zardushtiylikning tarixiy ildizlari rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq omillar asoslangan;

Zardushtiylik dinining ilk ko'rinishlarini aniqlash faqat arxeologik tadqiqotlarga tayanib asoslanishi, xususan, so'ngi bronza davriga oid Jarqo'ton, Dashtli, Togolok 21, Kelelidan topilgan diniy markazlar ilk zardushtiylik ibodatxonalarini ekanligi, qadimgi Baqtriyada ilk zardushtiylik an'analari Kuchuk I davridan shakllanganligi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar ochib berilgan;

Zardushtiylik ta'limoti dualizm g'oyasiga asoslanganligi, bunga O'rta Osiyo mintaqasining tabiiy iqlimi asos bo'lganligi, zardushtiylik dualizmiga ko'ra inson hayoti, ongi va tasavvuridagi kabi tabiat va jamiyatdagi bo'linish, ya'ni yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, saxiylik va baxillik, kun va tun, yorug'lik va zulmat, hayot va o'limdan iborat ekanligi bilan bog'liq tushunchalar dalillangan;

Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona yodgorliklaridagi ilk totemistik kultlar (ilon, burgut, tuya, sigir, yirtqich hayvonlar, qurt-qumursqalar va daraxtlar) so'ngi bronza davriga kelib barham topganligi aholining o'troq sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi tufayli totemistik kultlar, ya'ni zoolotirik diniy qarashlar o'rnini tabiat unsurlari: quyosh, yer, havo va suv egallaganligi bilan bog'liq holatlarning Avestada ifodalanganligi bilan bog'liq ijtimoiy hayot an'analari yoritib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Ushbu tadqiqotda zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va tarqalishida O'rta Osiyoning tabiiy sharoiti, aholisining hayot tarzi muhim rol o'ynaganligi, bundan tashqari, mintaqada mavjud bo'lgan turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar muhim o'rin tutganligi ushbu diniy ta'limotning ilk unsurlari va uning evolyutsion rivojlanish bosqichlari isbotlangan.

Zardushtiylik dinining insonlarni yetuklikka, ma'naviy boy va axloq, odob fazilatlarini asosida tarbiyalashga qaratilganligi, ayniqsa tabiatning asosiy unsurlari bo'lgan suv, quyosh, havo va tuproqni toza saqlashga undovchi chaqiriqlari, odamlari ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalga da'vat qilishi bilan bog'liq qadriyatlarini insonning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutishi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuv va ilmiy metodlar asosida birlamchi moddiy manbalarga oid

adabiyotlardan foydalanilganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida muhim oʻrin tutgan zardushtiylik dinining paydo boʻlishida asosiy rol oʻynagan tabiiy va ijtimoiy omillarining oʻrni, arxeologiya fanining soʻngi yillarda qoʻlga kiritgan ilmiy yutuqlariga asoslangan holda chiqarilgan nazariy xulosalar yurtimiz aholisining dastlabki diniy tasavvurlari bilan ilmiy tahlillarni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* tadqiqot natijalaridan qadimgi davrda kechgan tarixiy jarayonlar, Zardushtiylik dinining vujudga kelishi va tarqalish geografiyasi, bu davr aholisining ijtimoiy hayot tarixiga doir maʼlumotlar asosida “Oʻzbekiston tarixi”, “Qadimgi dunyo tarixi”, “Oks sivilizatsiya tarixi”, “Oʻrta Osiyo arxeologiyasi” fanlaridan yangi avlod darsliklari, oʻquv va metodik qoʻllanmalarining mazmunini boyitishda hamda yangi tadqiqotlar oʻtash uchun asos boʻlishida namoyon boʻladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻrta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo boʻlishida tabiiy va ijtimoiy omillar mavzusi boʻyicha olib borilgan tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va takliflar asosida:

Zardushtiylik dinining paydo boʻlishi masalasida ilmiy qarashlar XVIII asrdan boshlab qizgʻin munozaraga kirganligi shu asosda yevropalik olimlar tomonidan zardushtiylik dini, ibodat va amallari yetarlicha asoslansa-da, uning vatani borasida yagona toʻxtanga kelinmaganligi, biroq mahalliy tarixchilar tomonidan Sopolli, Jarqoʻton, Dashtli, Tagolok va Gonur yodgorliklarida topilgan materiallarga asoslanib zardushtiylikning tarixiy ildizlari rivojlanish bosqichlari bilan bogʻliq omillar toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan Termiz davlat muzey qoʻriqxonasi faoliyatida keng foydalanildi (*Oʻzbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 5-iyul sanasidagu 04-06/2276–sonli maʼlumotnomasi*). Natijalarning amaliyotga joriy qilinishi Termiz davlat muzey qoʻriqxonasi fondini boyitishga xizmat qildi.

Zardushtiylik dinining ilk koʻrinishlarini aniqlash faqat arxeologik tadqiqotlarga tayanib asoslanishi, xususan, soʻngi bronza davriga oid Jarqoʻton, Dashtli, Togolok 21, Keleli ibodatxonalari ilk zardushtiylik ibodatxonalari ekanligi qadimgi Baqtriyada ilk zardushtiylik anʼanalari Kuchuk I davridan shakllanganligi bilan bogʻliq tarixiy jarayonlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan Termiz davlat muzey qoʻriqxonasi faoliyatida keng foydalanildi (*Oʻzbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 5-iyul sanasidagu 04-06/2276–sonli maʼlumotnomasi*). Natijalarning amaliyotga joriy qilinishi muzeyga tashrif buyuruvchilar sonining ortishiga, gid-ekskursavodlarning ilmiy maʼlumotlarini boyitishga xizmat qildi;

Zardushtiylik taʼlimoti dualizm gʻoyasiga asoslanganligi, bunga Oʻrta Osiyo mintaqasining tabiiy iqlimi asos boʻlganligi, zardushtiylik dualizmiga koʻra inson hayoti, ongi va tasavvuridagi kabi tabiat va jamiyatdagi boʻlinish, yaʼni yaxshilik

va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, saxiylik va baxillik, kun va tun, yorug'lik va zulmat, hayot va o'limdan iborat ekanligi bilan bog'liq ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Ibtido" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DUK ning 2022-yil 5-maydagi 01-32-531-sonli ma'lumotnomasi*). Ushbu ko'rsatuvlar keng jamoatchilik o'rtasida O'rta Osiyoning qadimgi va boy mifologik qarashlari, zardushtiylik dinining paydo bo'lishida ijtimoiy va tabiiy omillari bo'yicha eng qadimgi mifologik obrazlardan biri sifatida turli xil ramzlarda moddiy madaniyatda aks etgani haqida kengroq tasavvurga ega bo'lishga xizmat qilgan.

Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona yodgorliklaridagi ilk totemistik kultlar (ilon, burgut, tuya, sigir, yirtqich hayvonlar, qurt-qumursqalar va daraxtlar) so'ngi bronza davriga kelib barham topganligi aholining o'troq sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi tufayli totemistik kultlar, ya'ni zoolotirik diniy qarashlar o'rnini tabiat unsurlari: quyosh, yer, havo va suv egallaganligi bilan bog'liq holatlarning Avestada ifodalanganligi bilan bog'liq ijtimoiy hayot an'analari haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Ibtido" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DUK ning 2022-yil 5-maydagi 01-32-531-sonli ma'lumotnomasi*). Natijalarning amaliyotga joriy qilinishi teletomoshabinlarning qadimgi davr tarixi, Avestoning paydo bo'lishi borasidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi xorijiy, 3 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 126 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganish zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligiga asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Zardushtiylik (mazda yasna) dini shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari**" deb nomlangan birinchi bobida zardushtiylik dinining

shakllanish jarayoni va uning jahon dinlari tarixidagi ahamiyatiga oid fundamental tadqiqotlar salmoqli ilmiy nazariyalarni yaratgan bo'lsa-da, diniy tizimning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va tarixiy-madaniy mohiyati hali ham fanlararo yondashuv va manbalarga asoslangan izohlar talab qiladigan ilmiy muammolar qatorida qolayotganligi bayon etilgan. Zardushtiylikning vujudga kelishi nafaqat Markaziy Osiyo qadimgi jamiyatining etnosotsial transformatsiyasi va diniy dunyoqarashlarning yuksalish jarayonini, balki butun Hind-Yevropa etnolingvistik hamjamiyatining ichki ijtimoiy ziddiyatlari va diniy tafakkur evolyutsiyasini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur paragrafda zardushtiylikning shakllanishi jarayonida hal qiluvchi rol o'ynagan qadimgi diniy qarashlarning tizimli o'zgarishi va ilk diniy-mafkuraviy tizimning paydo bo'lishida Markaziy Osiyo hududining g'oyaviy-madaniy maydon sifatidagi o'rnini yorituvchi tadqiqotlarni tahlil qilish orqali umumlashtiruvchi xulosalarga erishish maqsad qilingan.

Zardushtiylik dinining shakllanishiga oid tadqiqotlar davriy jihatdan umumiy informatsion xarakterdan bosqichma-bosqich rivojlanib mukammallashib borgan. Ilk bosqichdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor zardushtiylik dini matnlarini tarjima qilishga qaratilgan (A.Dyuperron<sup>32</sup>, F.Shpigel<sup>33</sup>, J.Darmesteter<sup>34</sup>). Ushbu tarjimalar ayrim kamchiliklarga qaramay, yarimmifologik, nisbatan badiiylashgan antik va o'rta asrlar muarrixlarining manbalardagi ma'lumotlarini nafaqat boyitdi, balki mutlaqo yangi va aniq faktlar bilan to'ldirdi.

Ikkinchi bosqich tadqiqotlarida yozma manbalardagi yarimmifologik ma'lumotlar asosida zardushtiylik vujudga kelgan tarixiy-geografik makon haqidagi bahslar atrofida kechgan (M.Boys<sup>35</sup>, G.Noli<sup>36</sup>, I.Gershevich<sup>37</sup>, O.Skaervyo<sup>38</sup>, A.Hinz<sup>39</sup>). Zardushtiylik vujudga kelgan hudud masalasi o'z-o'zidan dinning shakllanish vaqti muammosi bilan bog'liq bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni uchinchi bosqich deb hisoblash mumkin (H.Nyuberg<sup>40</sup>, J.Kellenz<sup>41</sup>).

To'rtinchi bosqich tadqiqotlariga Zardushtning tarixiy shaxsi va islohotlariga oid tadqiqotlarni, beshinchi bosqichga zardushtiylik dinining paydo bo'lishiga ta'sir etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillarni kiritish mumkin (J.Dyushen-Giyeman<sup>42</sup>, E.Vest<sup>43</sup>). Qayd etish joizki, ushbu bosqichlar shartli bo'lib, tadqiqot chegaralari ba'zan bir nechta yo'nalishlarda kesishgan. Zardushtiylikning shakllanishiga oid tadqiqotlar nafaqat maqsad yo'nalishi,

<sup>32</sup> Anquetil-Duperron A. H. *Zend-Avesta. Ouvrage de Zoroastre. T. I-II.* – Paris, 1771. – P. 279.

<sup>33</sup> Spiegel F. *Eranische Altertumskunde. Bd. I-III.* – Amsterdam, 1971. – S. 760, 632 und 863.

<sup>34</sup> Darmesteter J. *The Zend-Avesta, Part I: The Vendidad.* – Oxford: Clarendon Press, 1880. – P. 236.

<sup>35</sup> Boyce M. *A history of Zoroastrianism. Vol. I-II.* – Leiden-Köln, 1975, 1982. – S. 347 und 306.

<sup>36</sup> Gnoli G. *Zoroaster's Time and Homeland.* – Napoli, 1980. – P. 223.

<sup>37</sup> Gershevitch I. *The Avestan hymn to Mithra.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1959. – P. 357.

<sup>38</sup> Skjaervo O. *The Spirit of Zoroastrianism. Translated and edited by Prods Oktor Skjaervo. The Sacred Literature Series.* – New Haven: Yale University Press, 2011. – P. 270.

<sup>39</sup> Hintze A. *Zarathustra's Time and Homeland, Linguistic Perspectives.* In: M. Stausberg and Y. Vevaina (eds.), *The Wiley Blackwell Companion to Zoroastrianism. With the assistance of Anna Tessmann.* – Oxford: Oxford University Press, 2015. – P. 31-38.

<sup>40</sup> Nyberg H.S. *Die Religionen des alten Iran.* – Leipzig, 1938. – P. 187.

<sup>41</sup> Kellens J., Pirart E.: *Les textes vieil-avestiques, vol. III.* – Wiesbaden: Reichert, 1991. – P. 290.

<sup>42</sup> Duchesne-Guillemin J. *The western response to Zoroaster.* – Oxford, 1958. – P. 112.

<sup>43</sup> West E.W. *Pahlavi Texts, Part II.* – Oxford: Clarendon Press, 1880. – P. 193.

shuningdek, tadqiqotning metod va asoslariga ko'ra: tarixiy manbashunoslik va paleolingvistika (E.Benveniste<sup>44</sup>, H.Humbax<sup>45</sup>, I.Gershevich<sup>46</sup>, J.Kellenz va E.Pirart<sup>47</sup>), arxeologiya va antropologiya (R.Girshman<sup>48</sup>, P.Amiet<sup>49</sup>, M.Boys<sup>50</sup>, J.Bendezu-Saravia<sup>51</sup> va F.T.Hiebert<sup>52</sup>) tarixiy-sotsiologiya (B.Linkoln<sup>53</sup>, J.Assmann<sup>54</sup>, S.Shaked<sup>55</sup>, P.O.Skaervyo<sup>56</sup> va L.A.Lelekov<sup>57</sup>) dinshunoslik va falsafa (G.Widengren<sup>58</sup>, R.C.Zaener<sup>59</sup>, M.Eliade<sup>60</sup>, M.Boys<sup>61</sup> va U.Bianchi<sup>62</sup>) yo'nalishlarida amalga oshirilgan. Ushbu muammolarni hal etish uchun zamonaviy tadqiqotchilar qarama-qarshi nazariyalarni: bir tomondan, Zardushtning tarixiy shaxsining mavjudligi va uning ta'limotlarining birdayligi haqidagi an'anaviy yondashuvni, ikkinchi tomondan, zardushtiylikning uzoq davom etgan sinkretik rivojlanish jarayoni natijasi ekanligini ta'kidlovchi tanqidiy tahlillarni muvozanatlashga harakat qilmoqdalar.

Mustaqillik yillarida zardushtiylik dini paydo bo'lishi tarixining ayrim jihatlari bir qator mahalliy tarixchilarning ilmiy asarlarida qisman ochib berilgan bo'lsa-da, lekin aynan nima uchun Markaziy Osiyoda paydo bo'lganligi haqida alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Ya'ni bronza davrida dinning vujudga kelishi omillari va ilk bosqichlari to'liq yoritib berilmagan. Yangicha qarashlar asosida o'rganish lozim bo'lgan bir qancha masalalar mavjud bo'lib, bu esa ularni yoritishda yangicha qarashlar va yondashuv lozimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda Avesto tadqiqotlari, asosan, XX asrda yuzaga kelib, dastlabki eng muhim ma'lumotlar "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobida berilgan<sup>63</sup>. O'zbekiston tarixi

<sup>44</sup> Benveniste E. Le vocabulaire des institutions indo-européennes. Vol. 1-2. – Paris: Éditions de Minuit, 1969.

<sup>45</sup> Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts. Vol. 1-2. – Heidelberg: Carl Winter Universitätsverlag, 1991. – P. 179.

<sup>46</sup> Gershevitch I. The Avestan Hymn to Mithra. – Cambridge: Cambridge University Press, 1959. – P. 238.

<sup>47</sup> Kellens J., Pirart E. Les textes vieil-avestiques. Vol. I-III. – Wiesbaden: Reichert Verlag, 1988-1991. – P. 147.

<sup>48</sup> Ghirshman R. Iran: From the Earliest Times to the Islamic Conquest. – London: Thames and Hudson, 1954. – P. 321.

<sup>49</sup> Amiet P. Elam. – Paris: Presses Universitaires de France, 1966. – P. 224.

<sup>50</sup> Boyce M. On the Antiquity of Zoroastrianism. // Bulletin of the School of Oriental and African Studies, 1975, Vol. 37, No. 1. – pp. 57-75.

<sup>51</sup> Bendezu-Saravia J. The Archaeology of Zoroastrian Fire Temples in Iran and Central Asia. – Tehran: ICHO, 2001. – pp. 87-93.

<sup>52</sup> Hiebert F.T. Origins of the Bronze Age Oasis Civilization in Central Asia. – Cambridge (MA): Peabody Museum Press, 1994. – pp. 23-38.

<sup>53</sup> Lincoln B. Religion, Empire, and Torture: The Case of Achaemenian Persia. –Chicago: University of Chicago Press, 2007. – P. 114.

<sup>54</sup> Assmann J. Religion and Cultural Memory: Ten Studies. – Stanford: Stanford University Press, 2006. – P. 324.

<sup>55</sup> Shaked S. Dualism in Transformation: Varieties of Religion in Sasanian Iran. –London: School of Oriental and African Studies, 1994. – P. 134.

<sup>56</sup> Skjaervo P.O. The Zoroastrian Tradition: An Introduction to the Ancient Religion of Iran. –Cambridge (MA): Harvard University, 2005. – P. 184.

<sup>57</sup> Лелеков Л.А. Авеста в современной науке. – М., 1992. – С. 7.

<sup>58</sup> Widengren G. The Ascension of the Apostle and the Heavenly Book. – Uppsala: Lundequistska Bokhandeln, 1950. – pp. 88-91.

<sup>59</sup> Zaehner R.C. The Dawn and Twilight of Zoroastrianism. – London: Weidenfeld and Nicolson, 1961. – pp. 43-48.

<sup>60</sup> Eliade M. A History of Religious Ideas. Vol. 1: From the Stone Age to the Eleusinian Mysteries. – Chicago: University of Chicago Press, 1978. – pp. 123-138.

<sup>61</sup> Boyce M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge & Kegan Paul, 1979. – P. 223.

<sup>62</sup> Bianchi U. The History of Religions: Retrospect and Prospect. – Leiden: Brill, 1983. – P. 234.

<sup>63</sup> Истори народов Узбекистана. Т. 2. – Т., Изд-во АН УзССР, 1947. – 512 с.

bo'yicha akademik nashrlarda ham ilk bora Avesto haqida fikrlar bayon etila boshlandi<sup>64</sup>. O'zbekistonda avestoshunoslik va Avesto haqidagi dastlabki mulohazalar o'tgan asrning 50-yillarda paydo bo'ldi. Adabiyotshunos olim N.M.Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" (1958) darsligining "X–XII asrlar adabiyoti" nomli bo'limida Sharq xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorligi haqida fikr yuritib, Avestoning Mitra va Anaxita haqidagi miflarni tahlil qilgan<sup>65</sup>. Sharqshunos olim F.K.Sulaymonova zardushtiylik va u bilan bog'liq miflarning yunon madaniyatiga ta'sirini aniqlagan<sup>66</sup>.

O'zbekistonda zardushtiylik bilan bog'liq tadqiqotlar doirasiga A.Qayumov, M.Is'hoqov, A.Mahkam, R.X.Sulaymonov, A.S.Sagdullayev, H.Homidov, E.V.Rtveladze, M.Isamiddinov, T.Mahmudov, G.T.Mahmudova, Sh.B.Shaydullayev, A.Ashirov, B.Abdolnizozov, R.T.Urazova, Sh.Abdulloyev, B.Abdullayev, M.J.Ishmuratov va Q.Toshaliyev kabi mahalliy tadqiqotchilarning asarlarini ham kiritish mumkin<sup>67</sup>.

Taniqli avestoshunos olim M.M.Is'hoqovning zardushtiylikka bag'ishlangan asarlari arxeologik materiallarni nazariy jihatdan tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tadqiqotlarida Zardushtning diniy islohotlari va u yashagan davr tarixiy shart-sharoitlar, Avestoning vujudga kelishidagi diniy muhit va vaziyat taqozosi, zardushtiylik dinining O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni masalalari izohlar ilova qilinishi barobarida ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, olimning Avesto kitoblarining izohli tarjimalarida O'rta Osiyo xalqlarining islomgacha va islomdan keyingi din amaliyotlarida zardushtiylik g'oyalarining

---

<sup>64</sup> Ўзбекистон тарихи. Т I. – Т.: Фан, 1967. – Б. 321.

<sup>65</sup> Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 280.

<sup>66</sup> Сулаймонова Ф.К. Шарқ ва Ғарб. – Т., 1991. – Б. 20-21.

<sup>67</sup> Исҳоқов М.М, Сулаймонов Р. Заратуштринг вагани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. – №1. – Б. 45-54; Исҳоқов М.М. “Авесто”да эзгулик ва ёвузлик (мифологик қатламлар таҳлили асосида) // О'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2001. – №3. – Б. 22-30; Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001; Авеста: Видевдат китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: ТошДШИ, 2007; Исҳоқов М.М. Авеста: Зардушт “Гоҳ”лари (маъно ўғирмалари ва герменевтик талқинлари). – Тошкент: ТошДШИ, 2022; Қаюмов А., Исҳоқов М. ва б. Қадимги ёзма ёдгорликлар: “Авесто”, “Занд” китоблари; Суғд фалсафий-ахлоқий ёзма ёдгорликлари; Туркий матннавислик тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 2000; “Авесто” Адабий-бадий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001; Сағдуллаев А. “Авесто”нинг илк маросимларини ўрганишда археологик маълумотлар // “О'zbekiston tarixi” журнали. –Тошкент, 2001. – №3. – Б. 3-9; Ҳомидий Ҳ. “Авесто”дан Шоҳномага. – Тошкент: Шарқ, 2001. –№3. – Б. 42-47; Мирзаев Т. Жўраев М. “Авесто” мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // О'zbekiston tarixi. –Тошкент, 2001. – №3. – Б. 30-37; Ишмуратов М.Ж. “Авесто”да мифологик қатлам (табиат културлари асосида): филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001; Маҳмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Noshir, 2015; Жалолов Б. Заратуштра гаталари. Авесто тилидан ўзбек тилига илмий-изоҳли таржима. – Тошкент, 2014; Шайдуллаев Ш.Б. «Авеста» ва моддий маданият // “О'zbekiston tarixi” журнали. – №3. 2004. – Б. 5-11; Шайдуллаев Ш.Б. «Авеста» ва илк давлатчилик // “Жамият ва бошқарув” журнали. – №4. 2004. – Б. 42-43; Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авеста ва қадимги чорвачилик. – Тошкент, 2008; Уразова Р.Т. Зардуштийликда маъбудаларнинг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Ashirov A. O'zbek xalqining e'tiqod va marosimlari. – Т.: Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 274 b.; Abdulloyev Sh. O'rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida dev obrazi: shakllanishi va evolyutsiyasi: tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2023. – 50 b.; Abdullayev B. Zardushtiylik dini tarixiy-ijtimoiy asoslarining Avesta gohlarida ifodalanishi: tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Тошкент, 2024. – 50 б.; Toshaliyev Q.B. O'rta Osiyo daxmalari (Shimoliy Baqtriya misolida): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2024. – Б. 52.

ta'siri va undan saqlanib qolgan unsurlar chuqur tahlil qilingan bo'lib, tadqiqot mavzuumizni nazariy jihatdan yoritishda muhim o'rin tutadi<sup>68</sup>.

Zardushtiylikning paydo bo'lishi va shakllanish masalalarini tahlil qilarkanmiz, albatta, moddiy manbalarga tayanamiz. Bronza davrida O'rta Osiyoning janubida o'liklarni moddiy narsalari bilan yerga ko'mish odat bo'lgan bo'lsa, endi bu odatga barham berilgan, negaki shu davrga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar qazilgan bo'lsa-da, (Kuchuktepa, Bandixon I, Qizilcha VI) arxeologlar birorta qabrga duch kelganlari yo'q. Bu holat o'likni ko'mish urf-odatlarida tubdan o'zgarish sodir bo'lganligini – zardushtiylikning shakllanganligini ko'rsatadi<sup>69</sup>.

Yaqin yillarda O'zbekistonda zardushtiylik dinining paydo bo'lish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar va ilmiy ishlar o'zing samarasini berayotganligini ilmiy jurnallar va ulardagi maqolalarda ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, tadqiqotchi Sh.Abdulloyev o'zining "O'rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida dev obrazi: shakllanishi va evolyutsiyasi" nomli dissertatsiyasida Zardusht targ'ib etgan "mazdayasna" ta'limotining "dayevayasna" ta'limotiga qarshi qo'yilgani haqidagi ma'lumotlarni tahlil eta turib, zardushtiylikdan avvalgi ta'limotni "protozardushtiylik" yoki "protoavesto" ta'limoti deb emas, "dayevayasna" deb atash maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidlagan<sup>70</sup>.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilgan holda, zardushtiylikning ilk bosqich davrini Mazda Yasna desak, haqiqatga yaqin bo'ladi. Nima uchun bunday deb atashimiz kerak?

Birinchiidan, zardushtiylik dinining shakllanishida dastlabki bosqich alohida ahamiyatga ega. Bu davrda, ko'pincha, Mazda Yasna, ya'ni Ahura Mazdaga sig'inish sifatida talqin qilinadi. Bu nom bevosita Avesto matnlarida, ayniqsa, "Goh"lar qismida qayd etilgan bo'lib, Zardusht o'z e'tiqodini shu atama orqali ifodalagan. Shunday ekan, zardushtiylikning ilk bosqichini Mazda Yasna deb atash ilmiy, tarixiy va diniy jihatdan asosli hisoblanadi.

Ikkinchiidan, Mazda Yasna davrida diniy qarashlar hali qat'iy tizimlashmagan bo'lsa-da, monoteistik asoslar allaqachon shakllangan edi. Zardusht Ahura Mazdani yagona, abadiy va donishmand yaratuvchi sifatida ulug'laydi. Bu xudo

---

<sup>68</sup> Авесто: Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. –Т:Шарк, 2001; Марказий Осиё халқларининг қадим ва илк ўрта асрлардаги маънавий ва маърифий ҳаёти ҳақида айрим мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. – Тошкент.: Фан, 2005. – Б. 148-160; "Авесто" китобининг 2700 йиллиги // «"Авесто" китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи» мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент., 2000. – Б. 4-6; "Авесто жамиятида Хоразм воҳаси: шаҳарсозлик ва давлатчилик негизлари. // «"Авесто" китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи» мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент., 2000. – Б. 54-57; Қаюмов А., Исҳоқов М., Отаҳўжаев А., Содиқов Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент.: Ёзувчи, 2000; "Эзгу ўй, эзгу фикр, эзгу амал" // "Авесто" ва унинг инсоният таракқиётидаги ўрни. – Тошкент.: Фан, 2001; Қадимги давлатчилигимиз тарихидан. – Тошкент., 2006. –№1. – Б. 18-19; Авеста: Видевдат китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: ТошДШИ, 2007; Исҳоқов М.М. Авеста: Зардушт "Тоҳ"лари (маъно ўғирмалари ва герменевтик талқинлари). – Тошкент: ТошДШИ, 2022. – 340 б.

<sup>69</sup> Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида): тар. фанл. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2009. – Б. 196.

<sup>70</sup> Abdulloyev Sh.B. O'rta Osiyo xalqlari diniy qarashlarida dev obrazi: shakllanishi va evolyutsiyasi: tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. – Termiz, 2022. – B. 128.

yaxshilik manbayi nuqtayi nazaridan talqin qilinib, unga xizmat qilish – insonning axloqiy va ruhiy mukammallik sari intilishi deb ko‘riladi.

Uchinchidan, ilk zardushtiylikda tabiat kultlariga sig‘inish, marosimlar va urf-odatlar hali to‘liq yo‘qolmagan, lekin ular yangi axloqiy-falsafiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgan. Aynan shu sintez – eski oriy e‘tiqodlari va yangi monoteistik ta‘limot o‘rtasida uzviy bog‘liqlik – Mazda Yasna davrining asosiy xususiyati hisoblanadi.

To‘rtinchidan, Mazda Yasna bosqichi – zardushtiylik tarixida o‘tish davri bo‘lib, u qadimgi politeistik qarashlardan zamonaviy axloqiy monoteizmga yo‘l ochgan. Keyinchalik zardushtiylik rasmiy diniy tizim sifatida davlat darajasiga ko‘tarilib, sasoniylar davrida kuchaygan. Biroq bu jarayonlar ilk Mazda Yasna davridagi soddalik va axloqiy sof yondashuvdan ancha farq qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zardushtiylikning shakllanishiga asos bo‘lgan omillar”** deb atalib, zardushtiylik diniga asos bo‘lgan omillarga to‘xtalishdan avval, Zardushtning hind-oriylar jamiyatida din xizmatchisi bo‘lganini alohida hisobga olgan holda, uning yangi ta‘limotini tushunish uchun eng avval uni kamol toptirgan muhitni – e‘tiqod-mafkurasini yaxshi tasavvur eta olishimiz lozim<sup>71</sup>. Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan quyidagi omillarni keltirib o‘tish lozim:

Birinchi omil: tabiat unsurlarining ilohiylashtirilishida zardushtiylik ta‘limoti dualizm g‘oyasiga asoslanadi. Ana shunday dualizmga Turon mintaqasining tabiiy iqlim sharoitini keltirish mumkin. Turon mintaqasining iqlimi keskin kontinental, shimoliy qismida mo‘tadil, janubda subtropik, qahraton qish va jazirama yozdan iborat.

Shimoliy qismida qishi sovuq, yozi issiq, havosi quruq, kam bulutli. Yanvar oyida o‘rtacha harorati, shimoliy qismida  $-17^{\circ}\text{C}$ ,  $-18^{\circ}\text{C}$ , janubiy qismida esa,  $+2^{\circ}\text{C}$ ,  $+4^{\circ}\text{C}$ . Eng past harorat, shimoliy qismida  $-35^{\circ}\text{C}$ ,  $-40^{\circ}\text{C}$ , janubda  $-20^{\circ}\text{C}$ ,  $-25^{\circ}\text{C}$ . Iyulning o‘rtacha harorati  $+25^{\circ}\text{C}$ ,  $+35^{\circ}\text{C}$ , shimoliy qismida  $+21^{\circ}\text{C}$ ,  $+22^{\circ}\text{C}$ . Eng yuqori harorat  $+50^{\circ}\text{C}$  gacha ko‘tariladi<sup>72</sup>. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Turonning shimolida joylashgan hududlar, ya‘ni Avesto tili bilan aytganda, Ahriman tug‘ilgan yerlar sovuq bo‘lib, aholisi quyosh issig‘ini sezmagani. Qadimgi dunyoning dastlabki sivilizatsiya markazlari hisoblangan Ikki daryo oralig‘i, Elam, Babil yoki qadimgi Hind sivilizatsiya hududlari tabiati issiq bo‘lib, ularning aholisi sovuqning salbiy ta‘sirini anglamaganlar. Shunday ekan, Turonning ana shunday o‘ziga xos tabiiy sharoiti zardushtiylik ta‘limotining bosh g‘oyasi hisoblangan dualizmga asos bo‘la olgan.

Ikkinchi omil: zoolatirik diniy qarashlar hind-yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan<sup>73</sup>. Bronza davrining ilk davrlaridan boshlab, ular o‘troq dehqonchilik madaniyatlarida ham keng ko‘lamda uchray boshlaydi. Hayvon kulti urug‘ yoki

<sup>71</sup> Forrest S.K. Mendoza. Witches, Whores, and Sorcerers: The Concept of Evil in Early Iran. – Austin: University of Texas Press, 2011. – P. 66.

<sup>72</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – 782 б.

<sup>73</sup> Зарубин Л.А. Сходные черты зоолатрии и перехода к антропоморфизму у индоарийцев и славян // Советское славяноведение. 1967. – №3. – С. 45.

qabilaning umumiy nomi sifatida yuritilib, ularning haykallarini yasab, amulet va sanam sifatida ifodalangan. Ular urug‘ a‘zolari tamg‘alari, qurollari va kiyimlarida o‘z ifodasini topgan. O‘rta Osiyo xalqlarida esa, tumorlar bilan bog‘liq totemizm, fetishizm, magiya va tabiat kultiga sig‘inish e‘tiqod shakli yorqin namoyon bo‘ladi. Tumorlarda qushlar, hayvonlar, suv va yer hayvonlari, hasharotlar tasvirlangan. O‘rta Osiyoda qo‘y va tog‘ echkisi ko‘rinishidagi tumorlar ko‘proq aks etgan<sup>74</sup>. O‘rta Osiyoda hayvonlar kultining keng tarqalishini o‘rganishdan oldin bevosita hududda xonakilashtirish jarayonini o‘rganishdan boshlash lozim. O‘rta Osiyoda hayvonlarning xonakilashtirilishi va kultiga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>75</sup>. O‘rta Osiyoda kichik shoxli chorvaning ko‘paytirish amaliyoti neolit davridan boshlangan. Buning isbotini Joytun madaniyati misolida ko‘rishimiz mumkin. Joytun yodgorligida xonakilashtirilgan sigir va boshqa yirik shoxli hayvon suyak qoldiqlari aniqlangan<sup>76</sup>. Markaziy Osiyoda yirik shoxli chorva mollari mil. avv. IV ming yillik o‘rtalaridan xonakilashtirila boshlangan. Bu ushbu davr yodgorliklarining osteologiya fani masalalari orqali ma‘lum<sup>77</sup>. Zardushtiylikda chorvachilikning muhim ahamiyat kasb etishini Zardusht misolida ham tahlil qilish mumkin. Xususan, Zardusht tuyakashlar avlodidan bo‘lgan. M.M.Dyakonov Zaratushtra ismining etimologiyasini “(tovlanuvchi) tillarang (yoki baquvvat) tuya”<sup>78</sup>, V.M.Masson o‘z vaqtida bu so‘zning ma‘nosini “tuya yetaklovchi” deb ta‘kidlagan<sup>79</sup>. Umuman olganda, “ushtra” – “tuya” so‘zining Zaratushtra ismi o‘zagini tashkil etishining ajablanarli joyi yo‘q. B.A.Litvinskiy va

---

<sup>74</sup> Борозна Н.Г. Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения Средней Азии – Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С. 281-283.

<sup>75</sup> Шнирельман В.А. Возникновение производящего хозяйства. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. – 444 с.; Каспаров А.К. Костные остатки поселения Джейтун в Южном Туркменистане – Новые исследования на поселении Джейтун (Предварительные сообщения о работах советско-английской экспедиции). – Ашгабат, 1992. – С. 50-76; Дубова Н.А. Могильник и царский некрополь на берегах Большого бассейна Северного Гонура // У истоков цивилизации. – М.: Старый сад, 2004. –С. 254–281; Каспаров А.К. Скотоводство и охота эпохи неолита – палеометалла в Южном Туркменистане (Развитие стратегии использования животных ресурсов). –СПб.: Европейский Дом, 2006. –176 с.; Сатаев Р.М. Животные в хозяйстве и духовной жизни древнего населения Гонур-депе // Труды Маргианской археологической экспедиции. –М.: Старый сад, 2008. Т. 2. –С. 143–160; Сарияниди В.И., Дубова Н.А. Новые гробницы на территории «царского некрополя» Гонура // На пути открытия цивилизации. –СПб.: Алетейя, 2010. – С. 144-171; Дубова Н.А. Погребения животных в стране Маргуш // Труды Маргианской археологической экспедиции. – М.: Старый сад, 2012. Т. 4. – С. 101-139; Сарияниди В.И., Дубова Н.А. Культ животных в Маргиане // Академическое востоковедение в России и странах ближнего зарубежья (2007–2015). Серия: Археология, история, культура. – СПб.: Контраст, 2015. – С. 521-558; Сатаев Р.М. Животные в культуре Древней Маргианы. – М.: Старый сад, 2016. – 196 с.; Sataev R., Sataeva L., Dubova N. Plants, animal and human images of Ancient Margiana (Turkmenistan) in the context of cultural space of Ancient Near East // Proceedings, 11th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East. – Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2020. Vol. 1. – P. 259-274; Сатаев Р.М., Дубова Н.А., Сатаева Л.В. Двугорбый верблюд (*Camelus bactrianus*) на Гонур-депе и вопросы распространения вида на Древнем Востоке // Вестник археологии, антропологии и этнологии. – №1(56), 2022. – С. 49-61.

<sup>76</sup> Шнирельман В.А. Возникновение производящего хозяйства. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. – 444 с.; Каспаров А.К. Костные остатки поселения Джейтун в Южном Туркменистане // Новые исследования на поселении Джейтун (Предварительные сообщения о работах советско-английской экспедиции). – Ашгабат, 1992. – С. 50-76.

<sup>77</sup> Каспаров А.К. Скотоводство и охота эпохи неолита – палеометалла в Южном Туркменистане (Развитие стратегии использования животных ресурсов). – СПб.: Европейский Дом, 2006.

<sup>78</sup> Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1956. – С. 385.

<sup>79</sup> Массон В.М. Средняя Азия в III–I тысячелетия до н.э. // ИДВ. – С. 300.

I.R.Pichikiyanlar qayd etganidek, tuya Avestoda e'zozlangan jonivor sifatida tilga olingan va diniy amallarni bajarishda muhim sanalgan<sup>80</sup>, shuning uchun ham qadimgi eroniy antroponimikada ko'plab so'zlarning o'zagida "ushtra" (tuya) so'zi uchrab turadi. Bularning qatoriga payg'ambar Zaratushtraning ismi ham kiradi<sup>81</sup>. Zaratushtra ismining o'zagi ko'pincha "qari tuya" (ya'ni, "qari tuya yetaklagan kishi", "qari tuya yetaklovchi" yoki "tuya yetaklagan oqsoqol (donishmand)") shaklida uchraydi. Payg'ambar Zaratushtra ismining bunday etimologik tahlilini V.I.Abayev<sup>82</sup>, S.N.Sokolov<sup>83</sup> va I.M.Stebelin-Kamenskiy<sup>84</sup> kabi olimlar ilgari surishgan. Zardusht so'zining etimologiyasi "zar" – "oltin, sariq"; "ushtra" – "tuya", ya'ni "sariq tuyali", "sariq tuya egasi", "sariq tuya yetaklagan kishi"; otasining Purushasp ismidagi "aspa" so'zining qadimgi fors tilida "ot", "tulpor" ma'nolarini anglatishi ularning chorvachilik bilan bog'liqligiga yoki Zardusht qavmida bu jonzotlarga nisbatan hurmat-e'tibordan dalolat beradi<sup>85</sup>. Avestoning tarjimon-tadqiqotchilaridan biri I.M.Stebelin-Kamenskiyning<sup>86</sup> fikricha, ismlarga qo'shilgan jonzotlarning oti shu insonni yovuz ruhlardan himoya qilish maqsadida ishlatilgan, bu odat hozirgacha Markaziy Osiyo va Eron xalqlarida saqlanib qolingan. G.P.Snesarevning ma'lumotlariga ko'ra, tuya kultining izlari qadimgi xorazmliklarda tuyaning mo'tabar va pok jonivor sifatida e'zozlanishida, ularni daryo suvini boshqarib turadigan afsonaviy kuch – arallar nomi bilan atalishida, "tuyako'z" deb ataluvchi tumorlarni taqish, tuya junini magik xususiyatga ega bo'lgan vosita sifatida qadrlash kabi udumlarda ko'zga tashlanadi. Hammaga ma'lumki, tuya hayvonlar orasida issiqqa va suvsizlikka eng chidamli hayvon hisoblanib, qadimdan bir mamlakatdan boshqa bir uzoq mamlakatlarga safar uchun yoki savdo karvonlari uchun ikki o'rkachli tuya asosiy yuk tashuvchi transport vositasi sanalgan. Baqtriya tuyalari qattiq iqlimga yaxshi moslashgan. Ularning teri qavati qishda –30°C (–22°F)gacha sovuqqa, yozda +50°C (+122°F)gacha issiqqa bardosh bera oladi. Ular bir vaqtning o'zida bir necha oy davomida suvsiz qolishi mumkin, ammo suv mavjud bo'lganda ular bir vaqtning o'zida 57 litrgacha (15 gallon) suv ichishlari mumkin. Orqa tarafdagi ikkita ko'tarilgan o'rkach yog'dan iborat bo'lib, ular kerak bo'lganda suv va energiyaga aylanishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, ikki o'rkachli tuya bronza davri qabilalari uchun ham asosiy transport vositasi vazifasini o'taganligini ko'ramiz. Ikki o'rkachli tuyaning ilohiy hayvon bo'lganligi, ya'ni zoolatrik xarakter kasb etganligi bir nechta dalillar orqali o'z isbotini topadi. Birinchidan, tuyaning terrakota sifatida ifodalanishi bo'lsa, Avestoda u *kuchli*, *badjahl* hayvon sifatida tilga olinadi. Yana bir asosiy isboti sifatida zardushtiylik dinining asoschisi ismida tuya so'zining

<sup>80</sup> Гафуров Б.Г. Избранные труды. – М.: Наука, 1985. – С. 109.

<sup>81</sup> Литвинский Б.А., Пичикян И.Р. Золотые пластины из Храма Окса (Северная Бактрия). // ВДИ. 1992. – №3. – С. 109.

<sup>82</sup> Дорошенко А.Р. Зороастрийцы в Иране (историко-этнографический очерк). – М.: Наука, 1982. – С. 7.

<sup>83</sup> Соколов С.Н. Зороастризм. // Авеста в русских переводах (1861-1996). Сост., общ. ред., примеч., справоч. раздел И.В. Рака, изд 2 - е, исправл. – СПб.: Журнал «Нева», «Летний Сад», 1998. – С. 8.

<sup>84</sup> Гаты Заратуштры. Вступление, перевод с авест. и комментарии И.М. Стеблин-Каменского. // ВДИ. 2000. – №2. – С. 291.

<sup>85</sup> Авесто. Яшт китоби. М.Исхоқов таржимаси. –Тошкент: Шарк, 2001.

<sup>86</sup> Стеблин-Каменский И.М. Проповедь Заратуштры. // ИВ. Т.1. – М.: Изд. фирмы «Восточная литература» РАН, 2000. – С. 587-590.

qo‘llanilishidir. Zaratushttradagi *ushtra* so‘zi tuyani anglatishini bu hayvonning ilohiylik belgisidir<sup>87</sup>.

Uchinchi omil: ajdodlar ruhiga ibodat – patriarxal ekzogam urug‘larida shakllangan oila-urug‘ e‘tiqodlarining bir qismi. Ajdodlarga sig‘inishda urug‘ oqsoqollari va patriarxal oilalarning boshliqlari asosiy rol o‘ynagan. Ajdodlarga sig‘inishning turli shakllari mavjud bo‘lgan. Ajdodlarga sig‘inish dafn marosimlari (o‘lgan kishilarning joni va ruhi haqidagi tasavvurlar), shaxsiy homiy ruhlarga, oila-urug‘ oqsoqol homiylariga sig‘inish kabilar asosida tarkib topgan. Ajdodlarga sig‘inishda ajdodlarning ruhlari urug‘ning a‘zosi bo‘lib qolishi, lekin ular odamlardan kuchli bo‘lgani sababli urug‘ning farovonligi shu ruhlarga bog‘liq, degan tasavvur katta ahamiyat kasb etgan. Bu tasavvurlar obro‘-e‘tiborli urug‘ oqsoqoli timsolini qabila xudosi darajasiga ko‘tarish uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ajdodlar ruhiga e‘tiqodni fikrimizning dalili sifatida keltirishimiz mumkin<sup>88</sup>. Ibtidoiy diniy qarashlarning ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladigan ajdodlar ruhiga sig‘inish alohida diniy qarash sifatida, fanda o‘z isbotini topgan. U tarixiy taraqqiyotning ilk patriarxal urug‘chilik bosqichiga xosdir<sup>89</sup>. O‘rta paleolit davriga oid Teshiktosh g‘oridan 1938-yilda topilgan neandertal bola qabridan qizil bo‘yoq – oxra izlarining topilishi va qabrning hayvon shoxlari bilan o‘ralishi bu fikrning ashyoviy dalili bo‘lib xizmat qiladi<sup>90</sup>. “Olamdan o‘tgan ota-bobolar va urug‘ boshliqlarining ruhi avlodlarni balo-qazolardan asraydi”, degan tushuncha ushbu diniy qarashning mazmunini tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Janubiy O‘zbekiston arxeologik yodgorliklarida zardushtiylik shakllangan va amal qilgan davr artefaktlarining talqini masalasiga doir”** nomli uchinchi bobida zardushtiylikda moddiy manbalarning arxeologik jihatdan tahlili va Avestodagi ma‘lumotlar bilan taqqoslash bo‘yicha ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Zardushtiylik bronza asrining rivojlangan bosqichida inqilobiy fikr sifatida yuzaga kelgan, ya‘ni xudolari turlicha bo‘lgan, e‘tiqodlari xilma-xil, mulkiy munosabatlarda tabaqalangan jamiyat o‘z zaxiralarining adolatli, ijtimoiy taqsimoti masalasida o‘zini o‘rnatgan<sup>91</sup>. Jamiyat tarkibida yirik mulkdorlar, harbiylar, urug‘ va qabila oqsoqollari, mo‘badlar, dehqon va hunarmandlar, shuningdek, qarz tufayli ijtimoiy qaramlikka tushgan shaxslar hamda quyi maqomdagi huquqsiz harbiy asirlar kabi qatlamlarning shakllanishi natijasida, avval mulk munosabatlari mushtarakligiga tayangan ibtidoiy-jamoaviy boshqaruv tizimining o‘z holida saqlanib qolishi tobora qiyinlashdi. Bunday ijtimoiy tabaqalanish jarayoni ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va yer-suvdan foydalanish shakllaridagi o‘zgarishlar bilan

<sup>87</sup> Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши: тар. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2009. – Б. 21-22.

<sup>88</sup> Shaydullayev Sh. B. Ikkinchi dinlar tarixini o‘rganishda uslubiy anglashilmovchilik (arxeologiya manbalari va yangicha yondashuv) // O‘zbekiston tarixi. – №3. – T., 2020. – B. 55.

<sup>89</sup> Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш bosqichlari (Baktria misolida): тар. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2009. – Б. 25.

<sup>90</sup> Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш. Южный Узбекистан. Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М., 1949.

<sup>91</sup> Исҳоқов М.М, Сулаймонов Р. Заратуштранинг ватани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. – №1. – Б. 45-54.

chambarchas bog‘liq edi. Shu davrga oid moddiy-madaniy dalillardan biri sifatida Shimoliy Baqtriyada aniqlangan eng qadimgi sug‘orish inshootlaridan biri bo‘lgan kanal Kuchuk I davriga taalluqlidir. Mazkur davr madaniyati hozirgi O‘zbekiston hududida, aniqrog‘i, Ko‘hitang tog‘ining janubiy yonbag‘rida, Ulanbuloqsoy bo‘yida, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanida joylashgan yodgorliklarda o‘rganilgan. Kuchuktepa I aylana shaklda bo‘lib, asosi 320 m, yuqori qismida 150 m ga yaqin. Obidaning balandligi 8 m. Shimoliy-sharqiy tomonda alohida uylarning xarobalari joylashgan. Umumiy maydoni 0,5 ga ga teng. Yodgorlik 1962-yil arxeolik L.I.Albaum tomonidan aniqlangan. Arxeologik tadqiqot ishlarini A.Asqarov 1963- va 1984-yillarda (ma‘lum sabablarga ko‘ra uzilishlar bilan) olib borgan<sup>92</sup>.

O‘rta Osiyoda neolit va eneolit davrida, ya’ni qon-qarindoshlikka asoslangan urug‘chilik jamoalarida alohida ajratilgan sajdagoh-sig‘inish xonalari paydo bo‘ladi<sup>93</sup>. Bu jamoalar uchun bitta umumiy sig‘inish xonasining bo‘lishi xarakterlidir. Xuddi shunday xonalar Pessejik, Chaqmoqli, Yassitepa, Yalang‘och va Oltintepa yodgorliklarida o‘rganilgan<sup>94</sup>. Ibadatxonalari oddiy xonalarga nisbatan bir necha marta katta bo‘lib, devorlari ilohiy belgilar bilan bezatilgan. Markaziy Osiyo, xususan, janubiy O‘zbekiston hududi qadimdan yuksak madaniyatlar, rivojlangan chorvachilik, dehqonchilik va murakkab diniy-falsafiy tasavvurlar shakllangan markazlardan biri sifatida tanilgan. Janubiy O‘zbekistonda o‘rganilgan Sopollitepa, Jarqo‘ton, Bo‘ston yodgorligi, Shimoliy Afg‘onistondagi Dashtli, Janubiy Turkmanistondagi Gonur va Togolok yodgorliklarida olib borilgan arxeologik qazishmalar bu ilk diniy qarashlar, shuningdek, zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va shakllanish jarayoni hamda amaliy ko‘rinishlarini o‘rganish uchun noyob materiallar havola qildi<sup>95</sup>.

Bronza davri arxeologik belgilarida Sopollitepa qal‘a qo‘rg‘oni bittadan nmanani tashkil qiladi. Vis bu – nafaqat qishloq jamoasi, balki xususiy ishlab chiqaruvchilar uyushmasi, butun qishloq jamoasi ma‘nosini anglatib, Sopollitepa qishlog‘ini visga qiyoslab ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Davlatchiligimizning eng dastlabki bo‘g‘ini vislardan, ya’ni qishloq jamoalaridan boshlangan. Jarqo‘ton hududida joylashgan shahar ibodatxonasi shu ilk davlatlarning boshqaruv organi bo‘lib, boshqaruv tizimida diniy rahnamolikning o‘rni katta bo‘lgan. Ko‘hitang tizmasida joylashgan va ilmiy adabiyotlarda “zardushtiylik daxmasi” sifatida ta’riflangan yodgorliklar masalasi mintaqa qadimgi diniy marosimlari va dafn an‘analari tarixini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Arxeologik topilmalar, me’moriy shakllar va joylashuv xususiyatlari bu

---

<sup>92</sup> Албаум Л. И. К датировке верхнего слоя поселения Кучуктепе. ИМКУ, вып. 8. – Т., 1969; Аскарлов А. А., Албаум Л. И. Поселение Кучуктепа. – Т., 1979.

<sup>93</sup> Сагдуллаев А. “Авесто”нинг илк маросимларини ўрганишда археологик маълумотлар // “O‘zbekiston tarixi” журнали. – Тошкент, 2001. – №3. – Б. 3-9.

<sup>94</sup> Эсанов М.Х. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида): тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 133-134.

<sup>95</sup> Эсанов М.Х. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида): тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 133-134.

inshootlarning diniy-falsafiy mazmunini, ijtimoiy-huquqiy ahamiyatini hamda hududdagi etnik-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Tarixiy talqin shuni anglatadiki, Ko'hitang daxmalari faqat diniy atribut sifatida, balki qadimgi Baqtriya va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning dunyoqarashi, moddiy-madaniy taraqqiyoti va siyosiy-iqtisodiy sharoitlari haqida kompleks ma'lumot beruvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir. Shu bois, ularni izchil o'rganish mintaqa tarixining murakkab bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

## XULOSA

Zardushtiylik dinining paydo bo'lishida ijtimoiy va tabiiy omillar (O'zbekistonning janubi misolida) mavzusini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ilk zardushtiylik ibodatxonalari joylashgan Jarqo'ton, Dashtli va Togolok yodgorliklari misolida tom ma'nodagi zardushtiylik dini haqida emas, balki uning kurtaklari haqida so'z yuritsa bo'ladi, chunki so'nggi bronza davrida zardushtiylik urf-odatlariga zid bo'lgan arxeologik manbalar ko'p uchraydi. Shuning uchun Baqtriya va Marg'iyonadan topilgan ibodatxonalarni Qadimgi Sharqdagi singari ma'lum xudo – ilohlar nomiga qurilgan ibodatxonalar deb aytish mumkin bo'ladi.

2. Markaziy Osiyoda yakkaxudolikka ishonchning ilk belgilari bronza davrida yuzaga kelgan va diniy qarashlarda tabiat unsurlarini ilohiylashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega.

3. Zardushtiylik dini Markaziy Osiyoning bronza va ilk temir davrlarida jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va diniy hayotida muhim regulativ (tartibga soluvchi) va integrativ (birlashtiruvchi) rol o'ynaganligi va bu davrda diniy e'tiqodlar va marosimlar jamiyatni boshqarish, ijtimoiy tartibni saqlash va madaniy birlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lganligini e'tirof etish lozim.

4. Zardushtiylikning shakllanish davridagi Markaziy Osiyoning tabiiy landshafti: iqlimi, relyefi, suv manbalari va o'simlik-hayvonot dunyosini o'rganish zardushtiylikning shakllanish omillarini teran tushunishga xizmat qiladi. Xususan, Turonning o'ziga xos tabiiy sharoiti dualizmga asos bo'lgan.

5. Zardushtiylikning diniy marosimlarida olov, suv, yer va havo kabi tabiiy omillarning aks etishi nafaqat diniy urf-odatlarda, balki axloqiy va ekologik qadriyatlarda ham yaqqol namoyon bo'lgan.

6. Avestoda zardushtiylik davri jamiyatining asosiy xo'jalik ukladlari, yerga bo'lgan munosabat, dehqonchilik va chorvachilik faoliyati, mehnatning qadrlanishi kabi jihatlari tahlil qilinadi. Xo'jalik ukladining asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, ular nafaqat moddiy hayotda, balki diniy e'tiqod va axloqiy qadriyatlarda ham muhim o'ringa ega.

7. Zardusht yashagan davrdan avvalgi madaniy-ma'naviy jarayonlarga nisbatan protozardushtiylik deb ta'rif berish ilmiy jihatdan bahsli masala hisoblanadi. Protozardushtiylik atamasi tadqiqotchilar orasida keng muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, aniqlik yetarli emas. "Protozardushtiylik" atamasi dinning nomi emas, balki tarixiy jihatdan diniy qarashlarning rivojlanib, zardushtiylikka

o'tish bosqichi deb hisoblash mantiqiy jihatdan asosli hisoblanadi. Shu sababdan "zardushtiylikdan oldingi diniy tasavvurlar" iborasi terminologik noaniqliklardan qochish, xolis pozitsiyani saqlash va diniy evolyutsiyani ko'rsatish uchun eng optimal yechim deb bilamiz.

8. So'nggi bronza davri va ilk temir davriga kelib qadimgi xalqlarning diniy qarashlarida yangi diniy e'tiqod marosimlari va ijtimoiy kundalik turmush tarzida asta-sekinlik bilan sodir bo'lgan o'zgarishlar arxeologik tadqiqotlarda qayd etilgan. Bronza davri jamiyatining diniy-ma'naviy hayotida muhim bosqichni ifodalovchi Jarqo'ton zardushtiylik ibodatxonasi qadimgi xalqlarning diniy marosimlari o'tkaziladigan markazga aylangan bo'lib, aholining e'tiqod tizimi, marosimiy amaliyotlari va ruhiy qarashlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Arxeologik topilmalar va ibodatxona tuzilishiga oid tahlillar Jarqo'ton ibodatxonasi ilk zardushtiylik e'tiqodining dastlabki shakllari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Jarqo'ton ibodatxonasi nafaqat arxitektura va madaniy yodgorlik, balki diniy tafakkur evolyutsiyasining muhim tarixiy bosqichidir.

9. Ko'hitang tizmasida o'rganilayotgan arxeologik obyektlar ilk zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan xalq tomonidan bunyod etilgan bo'lib, daxma sifatida e'tirof etilayotgan tosh qalamalarning vazifasi madaniy hamda tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ularning funksiyasi, davri va madaniy konteksti haqida ilmiy muzokaralar davom etayotganiga qaramay, bu yodgorliklar orqali qadimiy diniy dunyoqarash va marosimlarning o'ziga xos xususiyatlarini yanada kengroq tadqiq qilish imkoni bor.

10. Ilk zardushtiylik e'tiqodining shakllanishida muhim rol o'ynagan diniy-ma'naviy markazlardan biri bo'lgan Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Ko'hitangtog' etaklari hududining tabiiy-geografik sharoiti chorvachilikka uyg'unligi sababli "Avesto"da ta'riflangan ko'chmanchi-yarimko'chmanchi mazdaparast jamoalarning shu joylarda uzoq vaqt yashaganliklarini tasdiqlaydi. Ko'hitangtog' etaklaridagi Kuchuk I davriga oid barcha yodgorliklardan olingan dalillar Avestoda bayon qilingan jamoa bilan to'liq mos keladi.

Tadqiqot ishi yakunida quyidagicha **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- O'rta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo bo'lishida tabiiy va ijtimoiy omillar haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtiruvchi xrestomatiyalarni yaratish;

- O'rta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo bo'lishiga asos bo'lgan ijtimoiy omillar yozma manbalar va etnografik ma'lumotlar bilan qiyoslagan holda "O'rta Osiyo tarixi va mifologiyasi" nomli veb-sayt yaratish orqali O'zbekistonga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish;

- Oliy ta'lim tizimidagi O'zbekiston tarixi, dinshunoslik, arxeologiya va etnologiya ta'lim yo'nalishlari uchun "O'rta Osiyoda zardushtiylik dinining paydo bo'lishida ijtimoiy va tabiiy omillar" o'quv qo'llanmasini yaratish;

- Dissertatsiya materiallari asosida "zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va shakllanish tarixi" ilmiy yo'nalishida loyihalar va ilmiy-nazariy konferensiyalarni tashkillashtirish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/27.09.2025.Tar.72.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КУШАКОВ САФАРАЛИ ЮСУПОВИЧ**

**ПРИРОДНЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ В ФОРМИРОВАНИИ  
ЗАОАСТРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по  
историческим наукам**

**Бухара – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2020.2.PhD/Tag703.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.  
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на сайте Ученого совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель**

**Шайдуллаев Шапулат Базарович**  
доктор исторических наук

**Официальные оппоненты**

**Очилдиев Файзулла Бобокулович**  
доктор исторических наук, профессор

**Исхаков Мирсадик Мирсултанович**  
доктор исторических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 13 » 2025 года в 10:00 часов на заседании ученого совета по присуждению научных степеней DSc.03/27.09.2024.Tag.72.07 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 140104, город Бухара, ул. М. Икбол, 12). Тел.: (+365) 221-29-14; факс: 0 (365) 271-26-12; e-mail: [dxuinfo@edi.uz](mailto:dxuinfo@edi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирован под номером 0173) (Адрес: 200117, город Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 15). Тел.: 0(365) 221-29-14; факс: 0(365) 271-26-12.

Автореферат диссертации был разослан « 30 » 09 2025 года.

(Протокол реестра № 1/2025 « 30 » 09 2025 года)



**Очилов А.Т.**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), доцент

**Болтаев Б.Б.**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD)

**Рахимов К.Р.**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Дальнейшее усиление в мире процесс глобализации требует изучения развития человеческого мышления и взаимосвязанных аспектов межкультурного взаимодействия. Поскольку процесс формирования религиозного феномена, являющегося важным критерием каждой цивилизации, через исследование природных и социальных факторов, оказавших на него влияние, обусловил необходимость анализа изменений, происходивших в социально-политической, духовной и культурной жизни человечества.

Во многих научно-исследовательских центрах мира, в частности в Школе востоковедения и африканистики Великобритании (School of Oriental and African Studies - SOAS, Великобритания), Федерации зороастрийских ассоциаций Северной Америки, музее Фрамджи Дадахтбая Алпаиваллы (Индия), Институте исследований философии Ирана (Iranian Research Institute of Philosophy - IRIP), Северо-Западном университете (Китай) и в ряде других учреждений, проводятся исследования, посвящённые древней истории Центральной Азии, возникновению и факторам распространения зороастрийской религии. В результате были получены сведения о возникновении зороастризма - первой монотеистической религии региона, а также об изменениях в жизни общества, выявленных через изучение природных, социальных, духовных и психологических факторов, сыгравших важную роль в его формировании. Тем не менее исследование природных и социальных процессов, происходивших в регионе от самых ранних этапов зороастризма до его возвышения до уровня монотеистической религии, остаётся актуальной задачей.

В условиях проводимых в Новом Узбекистане реформ, в процессе постепенной демократизации общественной жизни, создаются возможности для изучения богатой истории нашей Родины - территории, где переплелись религии, культуры и цивилизации, а также для объективного исследования и широкого продвижения нашего богатого исторического наследия на мировом уровне. «В нынешний день, когда наша страна вступает в новый этап своего развития, для нас новые научные исследования, посвящённые нашей древней истории и культуре, имеют более важное значение, чем когда-либо»

<sup>1</sup>. Поэтому проблема раскрытия эволюции зороастрийской религии — одной из первых монотеистических религий мира, выявления природных и социальных факторов, сыгравших важную роль на её этапах поступательного развития, а также сущности природных культов, послуживших её основой, приобретает особую актуальность.

Данное диссертационное исследование в определённой мере служит для выполнения задач, обозначенных в указах Президента Республики Узбекистан “О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Стратегия Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2021. – С. 37.

отрасли Республики Узбекистан” за Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности” от 17 февраля 2017 года, №ПП-4038 “Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан” от 28 ноября 2018 года, Распоряжение Президента Республики Узбекистан №Р-5181 “О совершенствовании охраны и использования объектов материального культурного и археологического наследия” от 18 января 2018 года, Указах Президента Республики Узбекистан №УП-81 “О мерах по трансформации сферы экологии и охраны окружающей среды и организации деятельности уполномоченного государственного органа от 31 мая 2023 года, №УП-158 “О стратегии «Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года и других нормативно-правовых документах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В 60-е годы XX века в Древней Бактрии началось открытие и изучение памятников бронзового века оседлой земледельческой культуры. Одновременно были проведены серьёзные научные исследования, касающиеся вопросов верований древнего населения Средней Азии. Это открыло широкие возможности для выдвижения научных гипотез о том, что возникновение первых городских государств в истории Узбекистана связано с формированием зороастрийской религии<sup>2</sup>. Для раскрытия содержания и сущности факторов возникновения и развития зороастризма литература была проанализирована в трёх частях.

- 1) Литература, созданная в советский период;
- 2) Исследования местных учёных в годы независимости;
- 3) Зарубежная литература.

К первой группе литературы отнесены труды, созданные в советский период. В эпоху Советского Союза историками и археологами были проведены ряд фундаментальных исследований, посвящённых возникновению и развитию зороастрийской религии. Среди этих исследователей особенно следует отметить работы В.И. Сарияниди<sup>3</sup>, В.М. Массон<sup>4</sup>, Ю.А. Заднепровский<sup>5</sup>, С.П. Толстов<sup>6</sup>, А.А. Аскар<sup>7</sup>, Н.А.

---

<sup>2</sup> Шайдуллаев Ш.Б. Илк давлатларнинг археологик белгилари // “O‘zbekiston tarixi”. – Тошкент. – 2002. № 3. – Б. 3-10.

<sup>3</sup> Сарияниди В.И. Задолго до Заратуштры (Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане), –Москва, 2010; Сарияниди В.И., Древние земледельцы Афганистана. –Москва, 1977.

<sup>4</sup> Массон В.М., Древнеземледельческая культура Маргианы. – Москва-Ленинград, 1959 (Материалы и исследования по археологии СССР. –№73); Масимов И.С., Удеумуратов Б.Н. Новые материалы по раннежелезному веку низовий Мургаба // Туркменистан в эпоху раннежелезного века. Ответственные

